O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATINING JAHON TAJRIBASIGA INTEGRASIYALASHUVI

Muallif: **Muhammadjonov Muzaffar Rustam Ug'li**
E-mail: Muzaffar606m@gmail.com

Annotatsiya: ushbu ilmiy tezizda muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining jahon tajribasi bilan integratsiyalashuvi masalalari yoritiladi. Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi farovonligini oshirish va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: xizmatlar sohasi, davlat siyosati, jahon tajribasi, xalqaro integratsiya, iqtisodiy rivojlanish, xizmatlar bozori, raqamlashtirish, innovatsiya, xizmatlar eksporti, xususiy sektor.

Интеграция государственной политики в сфере развития сферы услуг в Республике Узбекистан с мировым опытом

Аннотация: в данной научной тезисе автор освещает вопросы интеграции государственной политики, направленной на развитие сферы услуг в Республике Узбекистан, с мировым опытом. Анализируется значение сферы услуг в обеспечении экономического роста страны, создании новых рабочих мест, повышении благосостояния населения и укреплении конкурентоспособности экономики.

Ключевые слова: сфера услуг, государственная политика, мировой опыт, международная интеграция, экономическое развитие, рынок услуг, цифровизация, инновации, экспорт услуг, частный сектор.

Integration of state policy in the field of service sector development in the Republic of Uzbekistan with global experience

Abstract: This scientific thesis examines the integration of state policy aimed at developing the service sector in the Republic of Uzbekistan with global experience. The importance of the service sector in ensuring the country's economic growth, creating new jobs, improving the well-being of the population and strengthening the competitiveness of the economy is analyzed.

Keywords: service sector, state policy, global experience, international integration, economic development, service market, digitalization, innovation, service export, private sector.

O'zbekistondagi xizmatlar sohasi boshqa sohalarga nisbatan yangi bo'lganligi va so'nggi yillardagina rivojlanish sur'atlari erishayotganligi sababli hozirda ko'plab yangi iste'molchilarni jalb qilishda ba'zi bir qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Qolaversa, raqobat kuchayib borayotganligi yuzasidan, yangi mijozlarni jalb qilish xarajatlari tobora oshib bormoqda (yangi mijozlarni jalb qilish

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

narxi mavjudlarni qondirishdan 5 barobar yuqori)[1]. Iste'molchini raqobatchidan uzoqlashtirish uchun ularning talablarini raqobatchidan ko'ra yaxshiroq qondirish lozim. Xizmatlar sohasida raqobat muhitini shakllantirish tobora dolzarb masalaga aylanib borar ekan, xizmatlar sohasida faoliyat yurituvchi har bir korxona iste'molchilarni jalb qilish uchun raqobatda o'z pozitsiyasini sezilarli darajada mustahkamlaydigan boshqa tashkilotlarga nisbatan raqobatdosh ustunliklarni yaratish usullarini topish muammosiga duch keladi. Xizmatlar sohasidagi raqobatdosh ustunliklarining subyektlari: turli xil xizmatlar, sanoat birlashmalarini tashkil etuvchi korxonalar va tashkilotlar.

Xizmatlar sohasi mamlakat iqtisodiy o'sishi, arzon ish o'rinlari yaratish, bandlikni ta'minlash va kambag'allikni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro mehnat tashkiloti hisob-kitobiga ko'ra, xizmatlar sohasining 1 foizga o'sishi kambag'allikni o'rtacha 1,5 foizga qisqartiradi.

Iqtisodiy rivojlanishning dastlabki bosqichlarida sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining rivoji mahsulotlarni yetkazib berish (transport sohasi), kommunal infrastrukturalar (suv, gaz, elektr, kanalizatsiya), ishlab chiqarishni moliyalash (banklar), mahsulotlar bozorini kengaytirish (axborot, kommunikatsiya xizmatlari) va boshqa muhim xizmatlarga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, mamlakatda mehnat unumdorligini va inson kapitalini oshirish (ta'lim, sog'liqni saqlash), xalqaro savdoni kengaytirish imkoniyatlari ham xizmatlar sohasining rivojini talab qiladi.

Beqiyos madaniyati, go'zal tabiati hamda betakror tarixiy obidalariga ega O'zbekiston uchun sayyohlik sohasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Jahon turizm tashkiloti tomonidan Samarqand shahri 2022 yil uchun butunjahon turizm poytaxti, deb e'lon qilindi va O'zbekiston tarixda birinchi marta Jahon turizmtashkilotining Bosh assambleyasiga mezbonlik qiladi.

Hozirgi pandemiya davrida ko'plab mamlakatlarda ichki turizmni rivojlantirishga ustuvorlik berilmoqda. Masalan, tashqi turizm bo'yicha dunyoda yetakchi bo'lgan Xitoyning ichki turizm xarajatlari tashqi turizmga nisbatan bir necha karra yuqoridir. Qo'shni davlatlarda, masalan, Qozog'istonda jami sayyohlarning 85 foizini mahalliy aholi tashkil qilsa, Qirg'izistonda bu ko'rsatkich 75 foizga yetadi.

O'zbekistonda deyarli barcha hududlarda ichki turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Masalan, Toshkent viloyatida - Bo'stonliq va Parkent, Jizzax viloyatida - Zomin va Baxmal, Qashqadaryoda - Kitob, Qamashi va Shahrisabz, Navoiyda - Nurota, Samarqandda - Urgut, Surxondaryoda - Boysun va Sariosiyo kabi ko'plab joylar bor. Birgina Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumanida 16 sanatoriyning qayta tiklanishi hisobiga 1,5 ming kishi ish bilan ta'minlanishi mumkin. Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida yengil konstruksiyalardan foydalangan holda turistik bazalar tashkil etish orqali 8 mingga yaqin fuqaroni ish bilan ta'minlash imkoni bor. Andijon viloyatining Xonobod shahrida davolash-sog'lomlashtirish turizmi doirasida mineral suv xo'jaligini rivojlantirish hisobiga minglab ish o'rinlari yaratsa bo'ladi.

Shularni inobatga olgan holda, hozirda mamlakatimizda turizm salohiyati yuqori bo'lgan 45 ta hamda 40 ta tog'li va tog'oldi tumanlar rivojiga alohida e'tibor qaratiladi. Bu hududlarda yo'l, kommunal xizmatlar, mobil aloqa va tezkor internet masalalari tufayli turizm imkoniyatlaridan foydalanish cheklanmoqda. Masalan, birgina Shahrisabz tumanining Navro'z, Miraki, Oqdaryo va Hisor hududlariga yiliga 500 mingga yaqin sayyoh tashrif buyuradi. Lekin yo'l, mobil aloqa va internet, mehmonxona, umumiy ovqatlanish infratuzilmasi rivojlanmagani bois, sayyohlar bir kunga kelib ketmoqda.

[1] 5Juran's quality handbook / Joseph M. Juran, co-editor-in-chief, A. Blanton Godfrey, co-editorin-chief. — 5th ed.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ushbu qishloqlarga olib boruvchi 65 kilometr yo'lni ta'mirlab, internet, mobil aloqa va kommunal infratuzilma masalalari hal qilib berilsa, turizm xizmatlari 3-4 barobarga oshadi.

Bu orqali 45 ta qishloqda minglab mehmon uylari, mehmonxonalar, ovqatlanish va savdo shoxobchalarini tashkil etsa bo'ladi. Bundan tashqari, minglab odamlarning bandligini ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Xuddi shunday, yo'l infratuzilmasining ta'mirlanmagani tufayli Qamashida jahonda sanoqli va noyob bo'lgan Maydanak observatoriyasi hamda XIV asr yodgorligi hisoblangan "Langar ota" masjidining sayyohlarni jalb qilish imkoniyatlari ham cheklanmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida yirik turizm ob'yektlariga olib boruvchi yo'l, mobil aloqa, internet, mehmonxona, va kommunal infratuzilmalari davlat tomonidan ta'minlanadi.

Bundan tashqari, sayyohlik salohiyati yuqori bo'lgan tumanlarning "master reja"lari ishlab chiqilib, yerlar tadbirkorlarga tayyor loyiha bilan auksionga chiqariladi. Bu ishlar uchun dastlabki bosqichda, ya'ni 2022 yilda 200 milliard so'm mablag' ajratiladi. Shu bilan birga, kelayotgan yilda sayyohlik hududlarida infratuzilmani yaxshilashga 100 million dollar jalb qilinadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan mamlakatimizda sayyohlik sohasini rag'batlantirish maqsadida yangi choralar e'lon qilindi. Bunda:

- yangi mehmonxona, dam olish maskanlari uchun mol-mulk va yer solig'i 3 yil davomida 2 barobar past stavkada to'lanadi;
- turizm sohasi uchun maxsus soliq rejimi joriy etilib, 3 yil davomida aylanmadan olinadigan va ijtimoiy soliq 1 foiz stavkada, mol-mulk va yer soliqlari esa hisoblangan summadan 1 foizi miqdorida belgilanadi.

Kelayotgan yildan boshlab oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida, mehmon uylarini tashkil etish va ta'mirlash uchun ham, imtiyozli kredit ajratish yo'lga qo'yiladi. Bundan buyon sayyohlik salohiyatini yanada kengaytirish maqsadida tuman va shaharlar tanlab olinib, ularda maxsus soliq rejimi joriy qilinadi.

Barchamizga ma'lumki, hozirgi davr sayyohlik ob'yektlarida sifatli aloqa va internet tarmog'i bo'lmasligi ularning jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Afsuski, mamlakatimizning turli hududlarida barcha aloqa operatorlarining stansiyalari bo'lmagani tufayli ko'pgina sayyohlik manzillarida mobil aloqa va internet xizmatlari sifati talab darajasida emas.

Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida, davlatimiz rahbari tomonidan 2022 yilda qish loqlarda yangidan o'rnatiladigan aloqa operatori stansiyalari mol-mulk va yer solig'idan ozod etilishi, aloqa operatorlariga bazaviy stansiyalardan birgalikda foydalanish huquqi berilishi ta'minlanadi. Ushbu chora mamlakatimizning barcha hududlarida mobil aloqa va internet xizmati keng tarqalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Sanoati rivojlangan 27 tumanda aholining daromad darajasi inobatga olingan holda, savdo, umumiy ovqatlanish, logistika, mehmonxona, texnik xizmat ko'rsatish va ko'ngilochar maskanlar xizmatlarini rivojlantirishga ustuvorlik beriladi. Mazkur loyihalarni amalga oshirish maqsadida 200 milliard so'm ajratiladi.

Misol uchun, birgina Ohangaron tumanida 2022 yilda yirik qurilish materiallari klasterlari ishga tushishi hisobiga, logistika, qurilish, autsorsing, ekspertiza, savdo va ovqatlanish, mehmonxona kabi xizmatlarga talab kamida 2 barobar oshadi. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish tumanning iqtisodiy o'sishi va ishsizlikni pasaytirishda muhim ahamiyatga ega.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Xuddi shu kabi, O‘zbekiston tumanida ham umumiy loyiha qiymati 545 million dollarlik 11 ta sement, gipsokarton, gazoblok, temir-beton, metall buyumlar, quruq qorishmalar korxonalari ishga tushadi. Bu tumanda xizmatlar sohasiga talab kamida 25-30 foiz oshishiga olib keladi.

Shu bois, tumanning Sho‘rsuv, Dahana, Karimobod hududlarida kamida 100 ta savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat ob’yektlari, yirik logistika markazi, 20 ta texnik xizmat ko‘rsatuvchi korxona tashkil etish orqali minglab ish o‘rni yaratish imkoni yaratiladi. Shuningdek, yangi sanoat va xizmat ko‘rsatish korxonalariga kadrlar tayyorlash, ularni yangi texnologiyalarga o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘yish orqali, kasbiy ta’lim va axborot texnologiyalari xizmatlari hajmini ham 50 foizga oshirish mumkin.

Shu bilan birga, davlatimiz rahbari qishloq xo‘jaligida daromad yuqori bo‘lgan tumanlarda ishlatilmay turgan rezervlarni jonlantirish imkoniyatlarini Qamashi tumani misolida tushuntirib o‘tdi.

Bunday tumanlarda o‘rtacha kishi boshiga to‘g‘ri keladigan oylik xizmatlar miqdori 270 ming so‘m bo‘lsa-da, Qamashida bu ko‘rsatkich 180 ming so‘mni tashkil etadi. Tumanda 100 ming boshdan ortiq qoramol, 200 mingdan ziyod qo‘y-echki va 450 mingga yaqin parranda mavjud bo‘lgani holda, hozirda bor-yo‘g‘i 18 nafar veterinar faoliyat yuritmoqda. Shu bois, tumanda kamida 10 ta xususiy veterinariya xizmati korxonasi tashkil etilib, 150 dan ziyod ish o‘rni yaratish ikoniyati mavjud.

Bundan tashqari, tumanda paxta va g‘alladan bo‘shaydigan 940 gektar, jumladan, kelasi yilda 400 gektar yer maydoni aholiga ijaraga beriladi.

Mazkur maydonlarda yiliga 18 ming tonna sabzavot, poliz va dukkakli mahsulotlar yetishtirishni inobatga olib, ularni kafolatli xarid qilib, saqlash, quritish, saralash va qadoqlash xizmatlari ko‘rsatish uchun 5 ta kooperatsiya tashkil etiladi.

Shuningdek, ushbu ekin maydonlarida urug‘, ko‘chat, o‘g‘it yetkazib berish, agrohimoya, suv tejovchi texnologiyalar o‘rnatish va ularga xizmat ko‘rsatish, issiqxonalar qurish, minitexnika bilan ta’minlash, aholini o‘qitish va boshqa xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha alohida Agroxizmatlar markazi tashkil etiladi.

Tuman markazida 7,5 gektar maydonda barcha talabga javob beradigan, quvvati 200 tonnalik sovutkichga ega yangi “eko-bozor” quriladi va yana mingdan ziyod aholi bandligi ta’minlanadi. Shu bilan birga, Qamashida yangi ish boshlagan 60 nafar hokim yordamchilari tomonidan aholi uchun kundalik zarur bo‘lgan maishiy xizmatlar (sartaroshxona, go‘zallik saloni, hammom, tikuvchilik, poyabzal, texnika ta’mirlash va boshqalar) bo‘yicha 600 dan ziyod loyihalar shakllantirilgan. Hokim yordamchilari kasbga o‘qitish, yer uchastkalarini auksionga chiqarish, tijorat banklari va iqtisodiy idoralar bilan birga loyihalarni shakllantirish, ularga kredit, subsidiyalar olish bo‘yicha mas’ul bo‘ladi. Tumanning 2 ta markaziy ko‘chasida 100 dan ziyod savdo, ovqatlanish, dorixona va boshqa xizmatlar ko‘rsatish shoxobchalari tashkil etish reja qilingan.

2022 yildan boshlab mamlakatimizda markazlashgan uy-joy qurilishiga e’tibor yanada kuchaytiriladi. 2022 yilda yurtimiz bo‘ylab 21 ta qishloq tumanlarida 10 ming oila uchun “Yangi O‘zbekiston” massivlari, maktab, bog‘cha va tibbiyot maskanlari quriladi. Ushbu yangi massivlarda 21 turdagi zarur xizmat ko‘rsatish loyihalarini amalga oshirish hududlarda bandlikni ta’minlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda 85 ta chegara oldi hamda hududidan xalqaro avtomagistral va temir yo‘llar o‘tgan 99 ta tuman savdo va logistika xizmatlari ko‘rsatishga ixtisoslashadi. Misol uchun, G‘ijduvon tumanidan o‘tgan “A-380” xalqaro avtomagistral yo‘li yoqasida joylashgan 245 ta aholi uy-joylarining 1-qavatida xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish orqali minglab odamlar bandligini ta’minlash mumkin.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Buni amalga oshirish uchun banklar tomonidan uylarni qayta qurish va moslashtirishga imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Bugungi kunda magistral yo‘l bo‘yi xizmatlar sohasi ob’yektlari bo‘yicha barcha xalqaro avtomobil yo‘llari atrofida, xorijiy loyihachilarni jalb etgan holda, Yo‘lbo‘yi xizmatlarini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish topshirildi.

Oxirgi 5 yilda mamlakatimizda magistral yo‘lbo‘yi va chegara oldi hududlarida logistika xizmatlarini rivojlantirish imkoniyati kengaymoqda. Masalan, G‘ijduvonda 34 gektar maydonda Qoraqalpog‘iston, Xorazm, Buxoro, Navoiy va Qashqadaryoni bog‘lovchi viloyatlararo ulgurji savdo markazini qurib, 5 ming aholi bandligini ta’minlash mumkin.

Bundan tashqari, hozirda Toshkent shahriga katta hajmli mashinalarda kuniga 130 ming tonna yuk kirib, chiqadi. Bu poytaxtda tirbandlik, yo‘llar sifati va havoning tozaligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. 2022 yilda O‘rta Chirchiq, Yuqori Chirchiq, Quyi Chirchiq va Toshkent tumanlarida yuk taqsimlovchi yirik ulgurji savdo logistika markazlarini qurish orqali bu masala ham o‘zining ijobiy yechimini topadi.

Toshkent tumanidagi “G‘ishtko‘prik” bojxona postini kengaytirish, 11 kilometr yo‘l bo‘yini zamonaviy qiyofaga keltirish, 400 gektar maydonda savdo va logistika markazini tashkil etish hisobiga, kuniga 5 mingta yuk transporti, 35 ming kishiga xizmat qiladigan infratuzilma yaratiladi. Mazkur loyiha mamlakatimiz tashqi savdo potensialini oshiruvchi katta qadam, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu bilan birga, yurtimizga kelib ketuvchi ziyoratchilarga qulayliklar yaratish maqsadida barcha qo‘shni davlatlar bilan chegara o‘tkazish punktlari va ularga boradigan yo‘llarni o‘rganib, xizmatlar sohasi infratuzilmasini tubdan yaxshilash bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish topshirildi.

Mamlakatimizning 29 ta o‘rta va yirik shaharlari hamda aholisi 300 mingdan ortiq bo‘lgan 6 ta tumanida xizmatlar sohasi alohida yondashuv asosida rivojlantiriladi.

Barchamizga ma’lumki, ushbu shahar va tumanlarda xizmatlar ko‘lamini kengaytirish uchun, eng dolzarb masala bu - joy ajratish hisoblanadi. Lekin bu shaharlarda minglab ko‘p qavatli uylar mavjud bo‘lib, noturar ob’yekt sifatida ularning 10 foizidan ham foydalanilmayapti. Vaholanki, aholiga xizmat ko‘rsatish uchun eng qulay joy - ko‘p qavatli uylarning birinchi qavati hisoblanadi.

Ayni paytda shaharlarda ko‘p qavatli uylar yerto‘lalari ham deyarli bo‘sh turibdi. Ushbu rezervlardan foydalanish uchun yangi quriladigan ko‘p qavatli uylar yerto‘lasida xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini yaratish bo‘yicha qurilish normalariga o‘zgartirishlar kiritiladi va xonadonlarni noturar ob’yektga aylantirishning soddalashtirilgan mexanizmi ishlab chiqiladi. Bunda tadbirkorlarimizga qulaylik yaratish maqsadida keraksiz byurokratiyani olib tashlab, yong‘in xavfsizligi va sanitariya bo‘yicha aniq talablar belgilab beriladi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari viloyat hokimlariga yil yakuniga qadar 35 ta tuman va shaharda yengil konstruksiyali ob’yektlar uchun kamida 100 tadan yer uchastkasini auksionga chiqarish vazifasini qo‘ydi.

Shaharlar va yirik tumanlarda aholi daromadlarining yuqoriligi ta’lim, tibbiyot, san’at, turizm, uy-joy va transport xizmatlariga talabni oshiradi. Masalan, shaharlardagi aksariyat davlat maktablari yuqori yuklama bilan ishlayotgani, bog‘cha o‘rinlari yetishmayotgani hech kimga sir emas.

Ushbu maqsadda xususiy ta’lim xizmatlari qamrovini kengaytirish aholiga katta imkoniyat va yengilliklar yaratadi. Mazkur xizmatlar turlarini rivojlantirish maqsadida aholi ehtiyojini inobatga olgan holda, 100 ta qulay yer maydonlarini belgilab, maktab va bog‘cha qurish sharti bilan, auksion orqali tadbirkorlarga beriladi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Shular qatorida 2022 yilda shaharlar va yirik tumanlarda boshlanadigan Urganchdagi Pahlavon Mahmud va Xivadagi alleya hududlarida **"Turizm ko'chasi",** Buxoro shahrida **"Tibbiyot shaharchasi",** Guliston shahrida tibbiyot, Guliston va Yangiyerda ta'lim va tarbiya klasterlari, Qo'qon shahrida savdo va transport-logistika markazi, Andijon va Nurafshonda tez yurar transport tizimlari ushbu hududlardagi xizmatlar sohasi rivojini yangi bosqichga olib chiqadi.

Kelgusi yilda 35 ta tuman va shaharda turizm, transport, tibbiyot, ta'lim ob'yektlari, yirik savdo majmualarini tashkil etish uchun 200 million dollar yo'naltiriladi va xizmat ko'rsatish sohasida 200 ming ish o'rni yaratiladi.

Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizning eng yirik Toshkent, Samarqand va Namangan shaharlarida yuqori daromadli xizmatlarni rivojlantirish alohida dastur asosida amalga oshirilishi zarurligi ta'kidlandi.

Toshkent shahrida milliy va zamonaviy san'at, jumladan, rassomlik, haykaltaroshlik, teatr, maqom, opera, estrada yo'nalishlarida dunyoga tanilgan maktablar mavjud. Shahar hududida san'at, rassomlik, haykaltaroshlik, hunarmandchilik vakillarini keng jalb qilib, yirik "san'at ko'chalari"ni yaratish shaharlar jozibadorligini oshiradi. Bugungi kunda bu soha vakillariga mahsulotini sotishi uchun sharoitlar yetarli emasligi ham ayni haqiqat.

Bundan tashqari, Chig'atoy mahallasida milliy taomlar tayyorlash an'analarini tiklash orqali, nafaqat ichki, balki mintaqaviy gastronomik turizmni rivojlantirish imkoniyalari mavjud.

Toshkent shahridagi 10 dan ortiq muzeyni qayta ta'mirlash orqali ularning jozibadorligini oshirish hisobiga ham yiliga 500 mingdan ziyod sayyohlar uchun yangi marshrutlarni tashkil etsa bo'ladi. Ushbu maqsadda 2022 yilda Fransiya, Italiya, Turkiyadan restavrator va muzey ishi mutaxassislarini jalb qilib, barcha muzeylarni zamonaviy qiyofaga keltirish va noyob eksponatlarni namoyish etish yo'lga qo'yiladi.

Ta'lim va tibbiyot muassasalari joylashgan hududlarda boshqa xizmatlarni rivojlantirish uchun imkoniyatlar ko'p. Shu yilning o'zida 40 mingdan ortiq chet el fuqarolari tibbiyot xizmatlaridan foydalandi. Toshkent, Namangan va Samarqandda yadro meditsinasi markazi, neyro va kardioxirurgiya, stomatologiya, kosmetologiya klinikalarini tashkil etish bo'yicha tadbirkorlarning tashabbuslari qo'llab-quvvatlangan holda, moliyaviy va boshqa ko'maklar beriladi.

Yana bir masala - Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi yirik shaharlarda "Taks fri" tizimini joriy etish, shahar ichida "Dyuti fri" do'konlarini ochish orqali chakana savdo hajmini 2-3 barobarga oshirish imkoniyati yaratiladi. Umuman, xorijiy mehmonlarga xaridlari uchun qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarib berish tizimi barcha sayyohlik shaharlarida yo'lga qo'yiladi.

Zamonaviy tibbiy xizmatlarning rivoji aholimizga qulaylik yaratishi bilan birga, tibbiy xizmatlar eksportiga ham katta turtki bo'lmoqda.

Shu bois, xususiy tibbiyot uchun berilgan soliq va bojxona imtiyozlari muddati yana ikki yilga uzaytiriladi.

Mamlakatimizning tarixiy markazi Samarqand shahrida 400 ming kvadrat metr bo'lgan 7 ta va Namangan shahrida 200 ming kvadrat metr bo'lgan 3 ta yirik savdo va xizmat ko'rsatish majmualari faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Umuman, 2022 yilda Toshkent, Namangan va Samarqand shaharlarida xizmat ko'rsatish sohasida 750 ming ish o'rni yaratiladi va mamlakat bo'yicha xizmat ko'rsatish sohasida loyihalarni amalga oshirishga 500 million dollar ajratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

1. 5Juran's quality handbook / Joseph M. Juran, co-editor-in-chief, A. Blanton Godfrey, co-editorin-chief. - 5th ed.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11.05.2021 yildagi PQ-5113-sonli qarori
3. Xizmatlar sohasi statistika boshqarmasi (xizmatlar_dekabr_uz.pdf (stat.uz)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.09.2021 yildagi PF-4752-sonli farmoni
5. "Raqobat to'g'risida"gi qonun 2023-yil 3-iyul kuni [O'RQ-850-son] yangi tahrirda qabul qilindi

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.